

“QAT’IYAT” NING KOGNITIV BELGILARI

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi,*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta o‘qituvchi**University of Business and Science**E-pochta: irodajamoliddinova8@gmail.com**ORCID ID:0009-0004-9417-426X*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbek tilida qat’iyat konseptining o‘z o‘rni borligi, u boshqa konseptlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ekanligi haqida so‘z boradi. Xususan, “qat’iyat” konseptining o‘zi ham turli tashkil etuvchi uzvlar va belgilardan iborat bo‘lishi, “qat’iyat” konseptining kognitiv belgilarini matnlardan to‘plangan misollar orqali obyektiv baholanadi.

Kalit so‘zlar: Olamning lisoniy manzarasi, konseptosfera, konsept, “qat’iyat” konsepti, “qat’iyat” konseptining uzvlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается место концепта «решительность» в концептосфере узбекского языка, а также его взаимосвязь с другими концептами. В частности, отмечается, что концепт «решительность» состоит из различных структурных компонентов и признаков. Составляющие элементы концепта «решительность» объективно анализируются на основе примеров, собранных из текстов

Ключевые слова. языковая картина мира, концептосфера, концепт, концепт «решительность», структурные компоненты концепта «решительность».

Abstract. This article discusses the specific place of the concept of “determination” within the Uzbek language conceptosphere and its interrelation with other concepts. In particular, it examines how the concept of “determination” consists of various structural components and features. The components of the “determination” concept are objectively analyzed based on examples collected from texts.

Keywords. Linguistic picture of the world, conceptosphere, concept, the concept of “determination,” components of the “determination” concept.

Kirish. Tilshunoslikda konseptlar ma’lum bir strukturaga egaligi haqida nazariy qarashlar mavjud. Y. Stepanov konseptni “qatlamli tuzilma” sifatida tasvirlaydi. U konseptda quyidagi belgilarni ajratadi.

- 1) asosiy (muhim, aktual) belgi;
- 2) qo‘shimcha (tarixiy, passiv) belgi;
- 3) ichki shakl (etimologik belgi)lardan tashkil topadi.

Asosiy muhim belgilar barcha til egalari uchun umumiy bo‘lib, ushbu belgilar o‘zaro munosabat va muloqotda umumiy tarzda qo‘llanadi. Qo‘shimcha passiv belgilar esa ushbu konseptni tilning muayyan sohasida ma’lum bir ijtimoiy guruhlar uchun qo‘llanuvchi belgilaridir. Masalan, o‘zbek tilida “suv” konseptining barcha til egalari uchun umumiy belgilari asosiy belgilar hisoblansa, shifokorlar nazdida “organizmda ortiqcha to‘plangan suyuqlik” kabi tor sohadagi belgilari bor.

Ichki shakl esa bu tadqiqotchi tomonidan etimologik jihatdan aniqlangan belgi bo‘lib, til egalari dastlab nomlashda nimani nazarda tutganlarini ko‘rsatuvchi belgidir. Masalan, o‘zbek tilida “yashil” konseptining ichki shaklini barra o‘tlarning “yash+il” rangi, “qizil” konseptining ichki shaklini temir qiziganda kiradigan rangi tashkil qiladi: “qiz+il”.

“Qat’iyat” konseptini tashkil etuvchi belgilarini ajratishda aniq manbaga asoslanish lozim. O‘zbek tilida bir-biriga muqobil izohli lug‘atlarning mavjud emasligi ishni biroz mushkullashtiradi. O‘rganilayotgan konseptning abstrakt ma’no kasb etishi tadqiqotchining obyektiv fikrlashiga to‘sqinlik qiladi. Chunki abstrakt ma’noda aniq ko‘rinib turgan denotativ belgilar mavjud bo‘lmaydi. “Abstrakt ma’noli leksemalarning ma’no mundarijasini aniqlash murakkab bo‘lib, semik tahlil jarayonida ayrim o‘rinlarda sinonimlardan foydalanish holatlari kuzatiladi. Abstrakt so‘zlarning murakkab semantikasi leksikografik talqinlarini ham qiyinlashtiradi. Konkret ma’noli leksemalarning semantik strukturasi aniqlash esa osonroq kechadi. Chunki ma’no mundarija uning denotativ belgilari asosida shakllanadi”.

Adabiyotlar tahlili. Kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan leksemalarning semantik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha asosan, leksikologiya, semantika, pragmatika hamda antropotsentrik tilshunoslik doirasida o‘zbek tilshunoslaridan: Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev, Nizomiddin Mahmudov, Ergash Begmatovlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, Nizomiddin Mahmudovning ilmiy ishlari matn semantikasi va pragmatika bilan bog‘liq bo‘lib, unda til birliklarining kontekstual ma‘nolari keng tahlil qilingan. Olimning qarashlari badiiy matnda qo‘llanilgan leksemalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tilshunoslaridan John Lyons semantika nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan bo‘lsa, George Lakoff inson tafakkuri va til munosabatini kognitiv yondashuv asosida izohlagan. Ularning ilmiy qarashlari kishi nomlovchi leksemalarni semantik va konseptual jihatdan tahlil qilishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qat’iyat konseptining semantik uzvlari badiiy adabiyotlar, publitsistik va rasmiy-huquqiy matnlardan yig‘ilgan misollar asosida aniqlandi. Olingan til birliklari konseptual tahlil asosida guruhlariga ajratildi. Qat’iyat leksemasining semantik xususiyatlarini o‘rganishda zamonaviy tilshunoslikning bir qancha tahliliy metodlaridan foydalanildi:

Tavsifiy metod – leksemalarning semantik xususiyatlari va matndagi vazifasini izohlashda;

Semantik tahlil metodi – so‘zlarning asosiy va ko‘chma ma‘nolarini aniqlashda;

Kontekstual tahlil – leksemalarning badiiy matn tarkibida hosil qilgan emotsional-ekspressiv ma‘nolarini ochib berishda;

Tadqiqotning nazariy asosini Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev, Nizomiddin Mahmudov, V.Maslova, V.Karasik, G.Slishkin, S.Vorkachevlarning semantika va leksikologiyaga oid ilmiy qarashlari tashkil etdi.

Mazkur metodologik yondashuv asardagi kishi nomlovchi leksemalarning semantik tabiati, uslubiy xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifasini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Abstrakt soʻzlar obyektiv voqelikda mavjud boʻlmagan, inson ongida shakllangan mohiyatlarni nomlaydi. Bu mohiyatlar olamda alohidaliklar sifatida mavjud boʻlmaydi. Uni inson ongi egasidan ajratib alohida mohiyat sifatida talqin qilnadi. Olamda “qat’iyat” degan narsa yoʻq. Lekin insonning mana shunday xarakteri, ruhiy holati bor. Bu xarakter insondan alohida tarzda mavjud boʻlmaydi. Inson ongi shu xarakterni insondan ajratadi va alohida mohiyat sifatida anglaydi. Bu jarayonda qat’iyat tushunchasi shakllanadi. Til esa uni nomlaydi, obrazli tasavvurlar beradi.

“Qat’iyat” konsepti turli tillarda oʻxshash va farqli tashkil etuvchilarga ega boʻlishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, yapon tilida “yoʻqdan bor qilish”, “imkon topish” kabi belgilarga ega. Oʻzbek madaniyati qizlarning keskin qarorlari “qat’iyat” emas, shaddodlik, shapshaklik sifatida talqin qilinish holatlari mavjud.

Tadqiqotda oʻrganilayotgan konseptning kognitiv belgilarini ajratish uchun tajribadan foydalanildi. Tajriba soʻrovnomasida boʻlib, onlayn oʻtkazildi. Bu tajribaga 18 yoshdan katta turli kasb, turli ijtimoiy guruh aʼzolari jalb qilindi. Tajribada 100 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi. Tajribada quyidagi savollar berildi:

1. Sizningcha qat’iyat nima? Javob bitta gapdan iborat boʻlsin.
2. Qat’iyatning belgilarini sanab bering?
3. Qat’iyatni obrazli qanday tasavvur qila olasiz?
4. Qat’iyat tushunchasiga oid boʻlgan 10 ta soʻz yozing.
5. Kimni qat’iyatli inson deb bilasiz?

Tajriba onlayn tizimda tashkil etildi.

Soʻrovnomasida orqali quyidagilarni aniqlash maqsad qilib qoʻyildi:

1. Qat’iyat konseptining belgilarini aniqlash.
2. Qat’iyat konseptining obrazli tasvirini aniqlash.
3. Qat’iyat konseptining maʼnaviy tebranish kengligini aniqlash.
4. Qat’iyatning ramziy belgilari, prezident birliklarini aniqlash.

I. Soʻrovnomaning ikkinchi savoli asosida qat’iyatning belgilarini aniqladik. Bu tahlil oʻzbek tilshunosligidagi muayyan tajribalarga asoslanib bajarildi. Jami olingan natijalar quyidagicha: oʻzgarmaslik (21), barqarorlik (17), iroda (14), matonat (13), birsoʻzlilik (13), chidamlilik (11), vaʼdaga vafo (11), kerakli oʻrinda qoʻrqmasdan gapira olish (10), mustahkam iroda (9), oxirigacha borish (8), subut (8), bardosh (7), fikridan qaytmaslik (7), ahd (6), vafo qilish (6), dalillik (6), toqat (5), sadoqat (5), oʻziga ishonch (5), natijaga ishonch (4), shahd (4), qaysarlik (4), jasorat (3), keskinlik (3), oxirigacha kurashish (3), maqsadga erishmaguncha qoʻymaslik (3), ikkilanishning yoʻqligi (2), sobitlik (2), lafzida turish (2), chapdastlik (1), shiddat (1), masʼuliyatli (1), tushunish (1), izlanuvchi (1), haqiqatgoʻy (1), namunali (1), qiyinchilik (1), tajriba (1), intilish (1), insof

(1), o‘zim (1), ko‘zlarining o‘zgachaligi (1), fikrlarini boshqalar tomonidan ijobiy qabul qilinishi (1), adolatli bo‘lish (1), uddaburonlik (1), kirashish (1), liderlik (1), intuitsiya (1), hamdard (1).

Kognitiv belgilarning tartiblangan ko‘rinishi:

1. Asosiy kognitiv belgilar. Asosiy kognitiv belgilarga birdan ortiq reaksiya bildirilgan so‘zlar kiritildi: o‘zgarmaslik (21), barqarorlik (17), iroda (14), matonat (13), birso‘zlilik (13), chidamlilik (11), va’daga vafo (11), kerakli o‘rinda qo‘rqmasdan gapira olish (10), mustahkam iroda (9), oxirigacha borish (8), subut (8), bardosh (7), fikridan qaytmaslik (7), ahd (6), vafo qilish (6), dalillik (6), toqat (5), sadoqat (5), o‘ziga ishonch (5), natijaga ishonch (4), shahd (4), qaysarlik (4), jasorat (3), keskinlik (3), oxirigacha kurashish (3), maqsadga erishmaguncha qo‘ymaslik (3), ikkilanishning yo‘qligi (2), sobitlik (2), lafzida turish (2).

2. Muhim bo‘lmagan passiv kognitiv belgilar. Bu kognitiv belgilarni shaxsiy kognitiv belgilar deb ham atash mumkin. Chunki so‘rovnomada qatnashganlar o‘z shaxsiy assotsiyatsiyalaridan kelib chiqib fikr bergan. Ular quyidagilardir: chapdastlik (1), shiddat (1), mas’uliyatli (1), tushunish (1), izlanuvchi (1), haqiqatgo‘y (1), namunali (1), qiyinchilik (1), tajriba (1), intilish (1), insof (1), o‘zim (1), ko‘zlarining o‘zgachaligi (1), fikrlarini boshqalar tomonidan ijobiy qabul qilinishi (1), adolatli bo‘lish (1), uddaburonlik (1), kirashish (1), liderlik (1), intuitsiya (1).

3. Noto‘g‘ri ajratilgan belgi: hamdard (1).

II. So‘rovnomaning 3-savoli orqali “qat’iyat” konseptining obrazli belgilari aniqlandi:

- tog‘ (1),
- ulkan tog‘ (2),
- burgut (1),
- yo‘lbars (1)
- jilg‘a (1) “U o‘zi uchun har doim yo‘l topa oladi”
- o‘q (1) “ortga qaytmasligi”
- nuqta (1) “qo‘shimcha izohlar berilmaydi”
- o‘ziga ishongan inson tasviri (6)
- qo‘lida qilich tutgan jangchi (4)
- Ajriq o‘simligi (1)
- Qal’a (1)
- karvon (1)
- dengiz (1).

“Qat’iyat” konseptining obrazli kognitiv belgilari kutilmagan, ya’ni o‘xshatishlar lug‘atida uchramagan, badiiy adabiyotlarda metaforik qo‘llashlarda kam ishlatilgan belgilar ekanligi bilan diqqatni tortadi. Demak, xalqimizning obrazli tasavvurlari juda keng bo‘lib, bu kabi tajriba natijalari badiiy talqinlar uchun namuna manbasi bo‘la oladi.

III. “Qat’iyat” konseptining tebranish kengligi. “Qat’iyat” konseptini xalqning shu mohiyat haqidagi bilimlari, unga munosabati tashkil etar ekan, so‘rovnoma orqali “qat’iyat” konseptining ma’noviy kengligi aniqlandi. Bunda biz M.Xakimova tomonidan ilgari surilgan “ma’noning tebranish kengligi” tushunchasidan foydalandik.

“Abstrakt so‘zlardagi “ma’noning tebranish chegarasi” (N. Mahmudov, 276) ham konkret so‘zlarnikidan farqlidir. Denotativ so‘zlardagi “ma’noning tebranish chegarasi” predmetlar sinfiga xos xususiyatlarga ega konkret predmetning belgilari asosida aniqlanadi. Ma’lumki, bu xususiyatlar nomning signifikativ ma’nosida aks etadi. Masalan, qor so‘zining ma’noviy tebranish kengligi uning signifikatida aks etgan xususiyatlari asosida belgilanadi: oq rangli kristall shakldagi sovuq yog‘in. Lisoniy hamjamiyatdagi insonlar ongida qor so‘zining ma’nosi bir xil bo‘ladi. Ya’ni, mazkur so‘zda ma’noviy tebranish kuzatilmaydi. Denotatga ega bo‘lmagan nomlarning ma’noviy tebranishi ma’lum darajada ixtiyoriy bo‘lib, u lisoniy hamjamiyatda mazkur nom ifodalaydigan tushunchaning kengligi bilan belgilanadi. Masalan, denotatsiz hisoblangan muhabbat abstrakt nomining ma’noviy tebranish kengligi o‘zbek tili egalari ongida mazkur nom ifodalaydigan tushunchaning tebranish kengligi bilan chegaralanadi. Ya’ni, ushbu so‘z “kimsaning kimsaga yoki biror bir narsaga qalbdan berilish, moyillik hissi”ni nomlaydi (O‘TIL,II, 775). Har bir kishida mazkur hisning turlicha kechishi natijasida so‘z ma’nosining tebranishi kuzatiladi”.

So‘rovnomaning birinchi “Sizningcha qat’iyat nima?” savolining javoblari orqali “qat’iyat” leksemasining ma’noviy chegaralarini aniqladik: so‘zidan qaytmaslik, fikrda va amaldagi tizimlilik, o‘z pozitsiyasida mahkam turish, o‘z fikrida qattiq turib olish, birso‘zlilik, o‘ziga ishonch, o‘z qarorida tura olish, o‘z fikrida qat’iy turish, matonat, iroda, o‘ziga ishongan, o‘zining shaxsiy fikrini hurmat qiladigan inson, irodali inson, o‘z fikriga ega bo‘lish va uni o‘zgartirmaslik, o‘z fikrida turish, vaziyatga faqat o‘zining munosabatini bildirib olish, ko‘zlagan maqsadiga yetishish, qiyin vaziyatlatda o‘z fikrini o‘zgartirmasdan qolish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari shaxdam va aniq harakat qilish, qaror qabul qila olish, qat’iy turib aytilgan gap, insonning biror ishini bajarishga sobitligi, o‘z fikriga ega bo‘lish, o‘z majburiyatini bajarish, biror vazifani amalga oshirishga ishonch va sabr bilan yondashish, sobitlik, jur’atlilik. (O‘TIL, VI, 308).

Xulosa. O‘zbek xalqida boshqalarda bo‘lgani kabi qat’iyatning o‘lchovlari, chegarasi mavjud. Qattiq turishlikning asossizligi, mantiqsizligi, chegaradan oshib ketishi xalqimizda qoralanadi va qaysarlik deb nomlanadi. O‘zbek tilida qat’iyat qaysarlik bilan oppozitsiyaga kirishishi bilan qat’iyatsizlik tushunchasi bilan ham ziddiyatga qo‘yiladi. Ya’ni, xalqimiz qat’iyatlilik va qat’iyatsizlikni aksiologik juftlik, qadriyat va aksqadriyat sifatida baholaydi. Bu baho munosabatini ko‘plab maqollar va badiiy matnlardagi qarshilantirishlar orqali kuzatishimiz mumkin.

“Qat’iyat” konseptining kognitiv belgilari so‘rovnomaga asoslangan eksprement orqali aniqlandi. Unga ko‘ra, birdan ortiq reaksiya bildirilgan belgilar asosiy kognitiv

belgilar, bittadan reksiya bildirilgan belgilar nomuhim kognitiv belgilar sifatida belgilandi. So'rovnomalar natijalari tahliliga ko'ra o'rganilayotgan konseptning obrazli tasviri, "qat'iyat" konseptining ma'naviy tebranish kengligi, qat'iyatning ramziy belgilari, pretsedent birliklarda ramziylashishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.65.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 11.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: - T.: "Universitet" nashriyoti – 2000, II jild; -530 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik: "Sangzor" nashriyoti, Jizzax – 2006
5. Волкова А. А. Языковая репрезентация гендерных и возрастных особенностей концепта "beauty" в англоязычных текстах рекламы косметики // Современные научные исследования и инновации. 2015. № 12.
6. O'TIL: - T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006; I-V tomlar.
7. Muhayyo Hakimova. (2024). The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(5), 447–450.

